(9). https://qomus.info/encyclopedia/cat-a/axloq-uz/ //Ахлоқ.//qomus.info.
(10). Андриянов Е.В., Деникин А.В. Нравственный идеал как предмет воспитания. “Вестник университета’, 2013, № 3, с. 221–223-бетлар.
(11). Шер А., Ҳусанов Б. Эстетика. Т., Ўзб.файл.миллий жамияти нашр., 2010, 174–175-бетлар.
(12). Бекмуродова Г. Қишлоқ фуқаролари ижтимоий қиёфаси. Т., “Тафаккур гулшани”, 2015, 23-бет.
(13). Омонов Б.Н. Экологик глобаллашув ва унинг Ўзбекистон экологик сиёсатига таъсири. Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф., Самарқанд, СамДУ, 2022, 33–34-бетлар.

Mamadaliyeva Feruza Asrorovna (Toshkent davlat Agrar universiteti dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi;ORCID: 0009-0004-7404– 1419)

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH: JAMIYAT TARAQQIYOTINING ZARURIY OMILI SIFATIDA FALSAFIY TAHLIL

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korrupsiya atamasining kelib chiqishi va uning tarixiy ildizlari tahlil qilindi. Korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar har tomonlama yoritildi hamda bu jarayonda korrupsion holatlarning shakllanish sabablariga chuqur ilmiy yondashuv asosida o‘rganildi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishda Singapur davlati tomonidan qo‘llanilgan tajriba falsafiy va konseptual nuqtayi nazardan o‘rganilib, uning amaliy samaradorligi muhokama qilindi.*

Kalit so‘zlar: *korrupsiya atamasi, korrupsiyaning tarixuy ildizlari, shaxsiy manfaatlar, nomoddiy naf olish, jamiyat, axloq, qonun, huquq, siyosat.*

Мамадалиева Феруза Асроровна (доцент Ташкентского государственного аграрного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам, независимый исследователь Ташкентского государственного экономического университета; ORCID: 0009-0004-7404-1419

БОРЬБА С КОРРУПЦИЕЙ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КАК НЕОБХОДИМЫЙ ФАКТОР ОБЩЕСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ

Аннотация*. В данной статье рассматривается происхождение термина «коррупция» и анализируются его исторические корни. Всесторонне освещаются социальные, политические и экономические факторы, способствующие возникновению коррупционных преступлений. Причины формирования коррупционных явлений изучаются с научной точки зрения. Кроме того, анализируется опыт Республики Сингапур в борьбе с коррупцией с философской и концептуальной точек зрения, обсуждается практическая эффективность антикоррупционных мер.*

Ключевые слова*: коррупция, исторические корни коррупции, личные интересы, нематериальная выгода, общество, нравственность, закон, право, политика.*

Mamadaliyeva Feruza Asrorovna (Associate Professor at Tashkent State Agrarian University Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences Independent Researcher at Tashkent State University of Economics; ORCID: 0009-0004-7404-1419)

COMBATING CORRUPTION: A PHILOSOPIAL ANALYSIS AS AN ESSENTIAL FACTOR IN SOCIAL DEVELOPMENT

Annotation*. This article explores the etymology of the term “corruption” and analyzes its historical roots. The socio-political and economic factors contributing to the emergence of corrupt practices are examined comprehensively. The reasons for the formation of corrupt phenomena are studied through a deep scientific approach. Furthermore, the article investigates the experience of the Republic of Singapore in combating corruption from a philosophical and conceptual perspective and discusses the practical effectiveness of its anti-corruption strategies.*

Keywords: *corruption, historical roots of corruption, personal interests, intangible benefits, society, ethics, law, rights, politics.*

Kirish (Introduction). Korrupsiya haqida so‘z borar ekan, avvalo, bu ijtimoiy illat hisoblanadi. Bu illat hamma davrlarda ham jamiyatning har sohadagi taraqqiyotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda ham korrupsiyaga qarshi kurashish hamon dolzarbligicha qolmoqda. Korrupsiya ildiz otgan joyada eng oliy qadriyat bo‘lgan insonning huquqlari paymol bo‘ladi, jamiyat hayotida bo‘lsa ijtimoiy inqiroz paydo bo‘ladi. “Korrupsiya” atamasi, aslida, lotincha “corruptio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “buzish, zanglash, tizimni izdan chiqarish, pora evaziga sotilish” degan ma’nolarni anglatadi.

2017-yilning 3-yanvarida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi, bunga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasida aso-

siy tushunchalar berilgan bo‘lib, unda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuviga doir tushunchalarga ta’rif berilgan, ya’ni korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Avvalo, “korrupssiya” tushunchasiga ta’rif O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida keltirilgan bo‘lib, ushbu qonunning 3-moddasida unga doir huquqbuzarlik va manfaatlar to‘qnashuviga tegishli tushunchalar batafsil yoritilgan. Rossiyalik tadqiqotchlardan A.I.Dolgova o‘zining “Kriminologiya” asarida korrupsiyani ijtimoiy hodisa sifatida ta’riflagan [2;120-b.].

Xorijiy olimlardan Jozef Senturiya (Corruption political) fikriga ko‘ra, “korrupsiya shaxsiy naf ko‘rish maqsadida ommaviy hokimiyat vakolatlarini suiiste’mol qilishi”dir [3;54-b.]. Tomas Gobbs “korrupsiya shunday bir ildizki, barcha zamonlarda undan hamma qonunlarga nisbatan nafrat kelib chiqadi” degan fikrni ilgari suradi. [4;192-b.]. O‘zbek olimlaridan M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripov “Iste’dodli insonlar mamlakatning bebaho boyligidir” asarida korrupsiyaga qarshi kurashishda Singapur davlatining amaliy tajribasini chuqur tahlil qilganlar.

Tadqiqotning metodologiyasi (Research Methodology). Korrupsiyaga qarshi kurash: jamiyat taraqqiyotining zaruriy omili sifatida falsafiy tahlil va tadqiq etilgan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning kuzatuv, mantiqiylik, analiz, sintez, qiyosiy tahlil metodlaridan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Insoniyat uchinchi ming yillik sari dadil qadamlar qo‘ydi, ammo uning oldida turgan muammolar kamayib qolgani yo‘q. Bugungi globallashuv davrining eng ulkan muammolaridan biri bu korrupsiya muammosi hisoblanadi. Korrupsiya avvalambor har qanday mamlakatni muvaffaqiyatli rivojlanishiga ta’sir qiluvchi xavf bo‘lganligi uchun unga ijtimoiy hodisa sifatida qarash lozim. Shuning uchun korrupsiya tushunchasi nafaqat yuridik, balki ijtimoiy-siyosiy tushuncha ham hisoblanadi.

Korrupsiyaning tarixiy ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Chunonchi, yunon faylasufi Arastuning korrupsiyaga qarshi kurahish borasidadagi quyidagi fikrlari diqqatga sazovorlidir. “Har kanday davlat tizimida – qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo‘l bilan boyishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim”.

Rossiyalik tadqiqotchlardan A.I.Dolgova o‘zining “Kriminologiya” asarida korrupsiyani «davlat xodimlari yoki boshqa xizmatchilarning sotilishi va shu asosda ularning rasmiy xizmat vakolatlari, ular bilan bog‘liq obro‘si va imkoniyatlaridan shaxsiy yoxud tor guruhiy, korporativ manfaatlari yo‘lida foydalanishlarida ko‘rinadigan ijtimoiy hodisa»sifatida ta’riflagan [5;182-b.]. N.F.Kuznetsova korrupsiyani «davlat apparati va nodavlat tuzilmalarining xizmatchilarini sotib olishda ifodalanadigan ijtimoiy xavfli hodisa» deb ta’riflagan [6;50-b.].

«Korrupsiya» tushunchasini AQSH olimlari kengroq o‘rganib va har tomonlama tahlil qilganlar. Amerikalik tadqiqotchilar ushbu hodisani siyosiy arboblar, davlat apparatining xodimlari, tadbirkorlar va boshqa shaxslarning shaxsiy, oilaviy yoki guruhiy manfaatlar yo‘lida boyish hamda o‘z ijtimoiy maqomini oshirish maqsadida o‘zlarining rasmiy majburiyatlari va davlat funksiyalarini bajarishdan bo‘yin tovlashlari deb ta’riflaydilar [7;250-b.].

Korrupsiya bu kecha yoki bugun paydo bo‘lgan illat emas. O‘rganishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani paydo bo‘lishining uchta sababi mavjud ekan. Birinchisi, iqtisodiy sababi – davlat xizmatchilarinig past oylik maoshi. Ikkinchisi, instinutsional sababi – davlat idoralaridagi yopiqlik, qonunchilik tizimida shaffoflikni yo‘qligi, davlatni kuchsiz kadrlar siyosati

Uchinchisi, ijtimoiy-madaniy sababi bo‘lsa, jamiyat a‘zolarining intizomsizligi fuqarolarning tartibsizligi, jamoatchilikning passivligi.

Bundan tashqari, korrupsiyaviy jinoyatlar kelib chiqishining bir necha omillari ham mavjud ekan. Bularga antropologik omillar, iqtisodiy omillar, ijtimoiy omillar, maishiy korrupsiya, ishbilarmonlik korrupsiyasi va oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi. Bu omillar quyidagicha izohlanadi:

Antropologik omillar. Bunda insonning ziddiyatli tabiati ya’ni uning kam kuch sarflab, ko‘proq foyda olishga intilishi.

Iqtisodiy omillar. Iqtisodiyotning turli sektorlarining noteks rivojlanishi.

---

[1]Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сонли қонуни. (https://lex.uz/docs/3088008)

Ijtimoiy omillar. Jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, mehnat qonunchiligining buzilishi, ayollar va o‘smirlar mehnatidan foyadalanishda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilmasligi.

Maishiy korrupsiya. Asosan, mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilarining kundalik faoliyatida fuqarolar bilan munosabatda keng tarqalgan.

Ishbilarmonlik korrupsiyasi. Hokimiyat vakillarining tadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlarida uchraydigan holat.

Oliy hokimiyat organlari korrupsiyasi. Siyosiy hukmron doiralar hamda odil sudlov tizimi faoliyatida uchraydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, dastavval, korrupsiyaga kurashish dasturining muhim bandlaridan biri bu qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini takomillashtirish, shuningdek, kadrlar siyosatiga atroflicha e’tibor qaratish. Umuman olganda, korrupsiya atalmish illatga murosasiz muhitni vujudga keltirish juda muhimdir. Korrupsionerlar har doim o‘zining kirdikorlarini ommaga oshkor bo‘lishidan xavotirda yuradilar. Shuning uchun biz tom ma’noda matbuot va ommaviy axborot vositalariga erkinlik berishimiz va ularning bu borada olib borilayotgan ishlariga ko‘maklashishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-қонуни. (https://lex.uz/docs/3088008)

(2). Криминология. Под ред. А.И.Долговой. М., 1997, с. 288.

(3). Senturia, J. (1968).Corruption political. Unternational Enciclopedia of the Social Science, p. 186.

(4). Гоббс Т. Сочинения в двух томах. Т. 2, М., 1965, с. 492.

(5). Криминология. Под ред. А.И.Долговой. М., 1997, с. 250.

(6). Криминология. Под ред. Н Ф.Кузнецовой, Г.М.Миньковского. М., 1994, с. 360.

(7). Михайлов А.В. Борьба с коррупцией в США (80-е годы). Вопросы истории. 1994, № 5, с. 180.

Avazov Sanjar Ergashovich (QarDU “Falsafa va sotsiologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD); sanjarbek555@mail.ru)

ICHKI VA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistondagi mehnat migratsiyasi mohiyati, asosiy yo‘nalishlari, sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi. Xususan, mamlakatimizdagi mehnat migratsiyasi mohiyati ochib beriladi, turli ilmiy manbalar va statistik ma’lumotlar tahlili asosida uning yo‘nalishlarini belgilab berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar aniqlanadi. Shuningdek, O‘zbekistondagi bugungi mehnat migratsiyasi jarayonlari qator ijtimoiy oqibatlarga olib kelayotgani tavsiflanadi hamda bu oqibatlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *migratsiya, mehnat migratsiyasi, qishloqdan shaharga mehnat migratsiyas, viloyatlardan poytaxtga mehnat migratsiyasi, respublikadan xorijga mehnat migratsiyasi, malakali mutaxassislarning rivojlangan mamlakatlarga mehnat migratsiyasi.*

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ВНУТРЕННЕЙ И ВНЕШНЕЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

Аннотация. *В статье анализируются сущность, основные тенденции, причины и последствия трудовой миграции в Узбекистане. В частности, на основе анализа различных научных источников и статистических данных раскрывается сущность трудовой миграции в нашей стране, выявляются социально-экономические факторы, определяющие ее направление. Также описывается тот факт, что современные процессы трудовой миграции в Узбекистане приводят к ряду социальных последствий, и рассматриваются особенности проявления этих последствий.*

Ключевые слова: *миграция, трудовая миграция, трудовая миграция из сельской местности в города, трудовая миграция из регионов в столицу, трудовая миграция из республики за рубеж, трудовая миграция квалифицированных специалистов в развитые страны.*

DIRECTIONS OF INTERNAL AND EXTERNAL LABOR MIGRATION

Annotation. *The article analyzes the essence, main directions, causes and consequences of labor migration in Uzbekistan. In particular, the essence of labor migration in our country is revealed, and the socio-economic factors determining its directions are identified based on the analysis of various scientific sources and statistical data. It also describes the fact that today's labor migration processes in Uzbekistan lead to a number of social consequences, and discusses the features of the manifestation of these consequences.*